



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**Maxsus son.**

#### Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'liqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Qo'choqbo YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliyana MUSURMANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67  
e-mail: til\_adabiyoti@mail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazariy ravvoflik kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasi-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tuman, Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramta ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 2615-9225

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

|                                                                                                                                     |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda                                               | 2  |
| <b>DOLZARB MASALA</b>                                                                                                               |    |
| Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi                                                                            |    |
| <b>ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b>                                                                                              |    |
| Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi                                                     | 7  |
| Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari | 8  |
| Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonat testlardan foydalanish usullari                                                       | 11 |
| Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir                                                                                         | 12 |
| Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mustahkamligi                                                           | 14 |
| <b>TAAHLIL</b>                                                                                                                      |    |
| Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari                                            | 16 |
| Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya                                                                                | 18 |
| Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati                                                                    | 20 |
| Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar                                                         | 22 |
| O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behavo ma'naviy boylik                                                          | 22 |
| Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosini - shoirning asl dardi                                                                       | 24 |
| Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi                                                        | 28 |
| Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni                                                     | 30 |
| Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari                      | 32 |
| Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili                                                           | 34 |
| Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar                                                             | 36 |
| Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mustahkam jihatlari                             | 38 |
| Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir                                         | 40 |
| Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari                                                                      | 42 |
| <b>TADQIQOT</b>                                                                                                                     |    |
| Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn                                                                                      | 44 |
| Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari                                                | 46 |
| Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi                                                   | 49 |
| Arofotoy Muynidova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati                                         | 51 |
| Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini                                                                | 53 |
| Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi                                                             | 55 |
| Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari                       | 58 |
| Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari                                               | 60 |
| Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati" dagi dialektal so'zlar                                                       | 63 |
| Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchlisi                                                                                       | 65 |
| <b>KICHIK TADQIQOT</b>                                                                                                              |    |
| Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar                                                                 | 67 |
| Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati                       | 69 |
| Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalinishi                                           | 70 |
| Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi                                                       | 72 |
| Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi                                                                                | 73 |
| Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi                                                                              | 76 |
| Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari                                                     | 78 |
| Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini                                                     | 80 |

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

2) inglizcha maqol va matallar ma'nosi jihatidan o'zbek tilidan biron farq qilganda, qisman ekvivalent hisoblanadi: *"Better an egg today than a hen tomorrow"* – "Naqdi asal, nasiyasi kasal"; *"Better pay the butcher than the doctor"* – "Kasalni davolagandan, oldini olgan yaxshiroq";

3) o'zbek tilida mos variantlarga ega bo'lmagan va maxsus tushuntirishga muhtoj bo'lgan inglizcha maqol-

lar mavjud: *"A cat falls on his legs"* – Mushuk oyog'iga yiqiladi; *"There's many a slip twixt the cup and the lip"* – Finjon va labda ko'p xatolar bor. Bu shuni anglatadiki, hatto yaxshi natija yoki xulosa aniq ko'rib tursa ham, nimadir noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin, ya'ni "jo'lalarni ular ochib chiqmasdan oldin hisoblamang".

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Close R.A. A Reference grammar for students of English. – Moscow: Prosvescheniye, 1979. – 342 p.
2. Fries Ch. The structure of English. An introduction to the construction of English sentences. – London: Longman, 1963. – 385 p.
3. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1971. – 343 p.
4. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277 p.
5. Ilyish B. The Structure of modern English. – Moscow: Prosvesheniye, 1971. – 366 p.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 303 b.
7. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs-Maqollar-Posловицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 398 b.
8. Korunets V. Theory and practice of translating. – Vinnytsia: Nova Kniga, 2001. – 265 p.
9. Marvin D.E. Antiquity of proverbs. – New York and London: G.P. Putnam Sons, 1922. – 103 p.
10. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 207 b.
11. Meider W., Dundes A. The wisdom of many: Essays on the proverb. – New York: Garland, 1995. – 340 p.
12. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 508 b.

**Ziyoda USMONOVA,**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
magistr o'qituvchisi

## TA'LIM TIZIMIGA OID KUZATISHLAR, TAHLILLAR VA TAKLIFLAR

Xalqaro hamjamiyatda ilmiy, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida erishilayotgan yutuqlardan boxabar bo'lishning samarali yo'llaridan biri – ularning ta'lim tizimi va darsliklari bilan yaqindan tanishish. Jahonning rivojlangan davlatlari: AQSH, Xitoy va Turkiya ta'lim tizimlarining milliy pedagogik jarayonlar bilan qiyosiy tahlili tizimdagi mavjud muammolarga yechim topishda ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ilg'or davlatlarning umumta'lim maktablari, ulardagi ta'lim bosqichlari, o'qitish usul va shakllari, majburiy fanlarning sifat va samaradorlikka ta'siri, eng muhimi, darsliklarning tarkibiy qismi haqida fikr yuritish taqozo etiladi.

Masalan, Amerikada umumta'lim maktabi 3 bosqichli bo'lib: boshlang'ich; kichik o'rta va o'rta maktab ta'limini o'z ichiga oladi. AQSHda 12 yillik majburiy ta'lim amal qiladi. Maktabda o'quvchilar bilimi 100 ballik tizimda baholanadi. O'quvchilar kredit-modul tizimida o'qib, kerakli kreditni to'play olgan o'quvchilargina ta'limning keyingi bosqichiga qabul qilinadi. Boshlang'ich sinflarda bolalar an'anaviy tarzda o'qish, yozish, ona tili va adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, matematika, geografiya, tabiatshunoslik, gigiyena, mehnat va jismoniy tarbiya fanlari bo'yicha majburiy mashg'ulotlarga qatnashadilar.

Boshlang'ich ta'lim 5 yil davom etib, majburiy fanlar orasida o'qish, yozishdan tashqari ona tili va adabiyot fanlarining ham mavjudligi diqqatga sazovor. O'rta maktab bosqichida esa majburiy fan sifatida faqat matematika, ona tili va adabiyot darslari o'qitiladi. Qolgan fanlar o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra tanlanadi. Amerikadagi ona tili darsliklarida ham matn va lug'atlar berilgan. [1: 9] Har bir darsda o'quvchilar yangi bir matn bilan tanishadilar. Matn doirasida ularga tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalariga oid topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarning barchasi bevosita matn bilan bog'liq. Matn yuzasidan qisqacha lug'at ham ilova qilinadi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish asnosida grammatik qoidalar bilan ham tanishtiriladi. Darslikda o'quvchining mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiruvchi va uni ijodiy faollikka yetaklovchi savol va topshiriqlarga keng o'rin ajratilgan. Dars so'ngida esa, yakuniy xulosa sifatida biror ibratli masal yoki qisqacha to'rtlik keltiriladi.

Turkiya ta'lim tizimida esa, majburiy maktab ta'limi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Boshlang'ich maktab 1–8-sinflarni o'z ichiga oladi. O'rta ta'lim to'rt yil davom etadi. Bu bosqichda, asosan, umumiy, texnik va kasb-hu-

nar ta'limini qamrab oladi. Shuningdek, o'quvchilarga turk tili ona tili sifatida o'rgatilishi kerak, bu barcha o'quvchilar uchun majburiydir. O'rta ta'limni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng o'quvchilar Lise diplomiga ega bo'lishadi. Turk tili ta'limi mazmunini o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari tizimi tashkil etadi. Bu munosabat bilimlar, mustaqil ijodiy faoliyat va amaliy ko'nikma-malakalar tizimida o'z aksini topadi. Turk tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi quyidagilar:

- amaliy maqsad: til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- ta'limiy maqsad: mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish;
- tarbiyaviy maqsad: ma'naviy, g'oyaviy-estetik tarbiya berish;
- rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchi shaxsini aqliy jihatdan rivojlantirish. [2: 9]

Darsga qo'yilgan maqsaddan ham ma'lum bo'ladi, turk ta'lim tizimida asosiy urg'u o'quvchining amaliy ko'nikma-malakalarini hosil qilishiga qaratilgan. Amalda qo'llanilayotgan turk tili darsliklarida ham an'anaviy tartib mavjud. Har bir darsda o'quvchilar ma'lum mavzuga oid matn bilan tanishtiriladi. O'quvchilar matn yuzasidan olti bosqichli topshiriqlarni bajaradilar. [3: 102] Avval o'quvchidan matnni ifodali tarzda o'qib chiqish talab etiladi.

Matnga mualliflarning izohi – matnning mazmuni, mavzusi, muallifning aniq maqsadi ilova sifatida keltiriladi. Matnda qo'llanilgan notanish so'zlar, iboralarining izohi, ma'nolari beriladi. Bu bilan o'quvchining lug'at boyligi ma'lum darslarda emas, har bir darsda oz-ozdan boyib borishiga erishiladi. Berilayotgan lug'atlar o'quvchi uchun tanish, kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlar bo'lishi ham mumkin. Chunki bola ayrim so'zlarni nutqida faqat o'z ma'nosida qo'llaydi. Vaholanki, so'zning kannotativ ma'nolari matn ichida anglashiladi. Shu boisdan o'quvchilarga so'zning aynan matnda anglatgan ma'nosini tushuntirib berish foydadan xoli bo'lmaydi. Aksincha, o'quvchilarning lug'at boyligi oshishi va obrazli fikrlash doirasi kengayishiga xizmat qiladi. Lug'atlarda aks etgan so'zlarni o'quvchining nutqli jarayonida faol qo'llanilishiga erishish ham darsning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilar matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarga javob topadilar. Bu bosqichda ko'proq mantiqiy fikrlash, ijodiy faollik, mustaqil izlanuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Matnga mos tarzda grammatik qoidalar beriladi. Matn ichidan berilgan nazariy qoidaga mos o'rinlarni topish va ularni tahlil etish o'quvchidan talab etiladi. Bu bilan nazariyani bevosita amaliyot bilan bog'lash imkoni tug'iladi.

Fikrni to'g'ri ifodalash yuzasidan adabiy tilga xos nazariy tushunchalar bilan o'quvchilar mintazam ravishda tanishtirib boriladi. Har bir jumlaning aniq va ta'sirchan ifodalay olish uchun zarur bo'lgan barcha kommunikativ sifatlar o'quvchi shaxsiga dars davomida singdirib boriladi. Har bir dars yakunida matn muallifi haqida qisqacha ma'lumot ilova qilinadi. Adabiyotda

tutgan o'rni, asarlarining g'oyaviy mazmuni muhokama etiladi. O'quvchilarni ta'limiy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalovchi mustaqil o'qish uchun berilgan matnlar ham darslikda salmoqli o'rinni egallaydi.

Yuqoridagi talablarga javob bera oladigan matnlarga darslik tarkibidan o'rin oladi. Har bir matn ma'lum maqsadlarni ko'zlagan holda va aniq rejaga muvofiq tanlanadi. Bugungi turk milliy ta'lim tizimining ham yutuqlari uchun poydevor bo'lgan amaliy maqsad o'zbek milliy pedagogikasida ham o'z aksini topishi zarur. Shundaygina biz oldimizga qo'ygan barkamol shaxsni tarbiyalashdek oliy maqsadimiz sari yana bir qadam olg'a intilgan bo'lamiz.

Xitoy maktablarida ham ta'lim quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- boshlang'ich ta'lim: 6–7 yoshdan 12 yoshgacha;
  - o'rta maktab: 12 yoshdan 15 yoshgacha;
  - katta o'rta maktab: 15 yoshdan 18 yoshgacha. [4]
- Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga, asosan, matematika va xitoy tili o'rgatiladi. Xitoy tili darsliklari 3 qismdan iborat: 1. O'quvchi kitobi. 2. O'qituvchi kitobi. 3. O'qish kitobi. Ular darslik ilovalari emas, balki bevosita tarkibiy qismlari sanaladi. Zamonaviy darsliklarda, ayniqsa, aksariyat xitoy tili darsliklarida xusnixat, daftar, CD disklar ham ilova qilinadi. [5: 70]

O'quvchilarning mashq kitobi haqida gap ketganda, asosan, darslikning mazmuni, tuzilishi va dizayni tahlil etiladi. Bu kitobning asosini til materiallarini o'z ichiga oluvchi, til texnikasi va nutq malakalarini o'stiruvchi mashqlar tashkil etadi. Darslikning har bir sahifasi mavzuga oid tasviriylar vositalari bilan bezatiladi. Grammatik qoidalar ham mashqlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Har bir mashq uchun alohida shart va material beriladi. Darslar integratsiyalashgan ta'lim asosida olib boriladi. Har bir fan alohida shaklda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda o'rgatiladi. Xitoy tili darsligida berilgan mashqlar va matnlar adabiyot, san'at, tarix, falsafa va, albatta, texnika bilan bog'liq bo'lishi muhim. Xitoy tilida mashqlar ikki toifaga bo'linadi: 1) sinf mashqlari; 2) uy mashqlari. Uy mashqlarining yozma shaklda bo'lishiga alohida ahamiyat beriladi. Xitoyda har bir o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda darslikda berilgan mashq va topshiriqlarning miqdori va sifatini qisman o'zgartirishi mumkin.

Xitoyda boshlang'ich maktabda har bir o'quvchi xusnixat, daftar yuritilishi shart. Xitoy yozuvi iyerogliflardan iborat bo'lgani uchun ularni o'rganish hatto xitoyliklarga ham bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xitoyda alifbo mavjud emas, ular har biri semantik ma'no bildiruvchi 6000 atrofidagi iyerogliflardan foydalanishadi. Shuning uchun ham xusnixat daftarlarida iyerogliflarni yozish uchun maxsus katakchalar, iyerogliflardan namunalar, yozuv bo'yicha ko'rsatmalar, iyeroglif yozish qonun-qoidalarini jamlangan bo'ladi.

Yuqoridagi dunyoning eng yetakchi davlatlari qatori-dan joy olgan millatlarining ta'lim tizimini ko'rib chiqdik. Har bir davlatda maktab ta'limi, ona tili o'qitish metodikasi, fanning mazmuni, ona tilida matn bilan ishlash

ko'nikmalari bilan tanishdik. Milliy darsliklarimizda ham matn va lug'atlar bilan ishlash darslari fanga ajratilgan soatlarning salmoqli qismini egallaydi. Matnlar mavzu jihatidan rang-barang. Har bir matnga mos ravishda mashq va topshiriqlar tizimi ustida ishlash zarur. 5-, 8- va 11-sinfda berilgan matn va lug'atlar ustida ishlash darslari ancha takomillashib, dunyo standartlari talablariga yaqinlashgani quvonarli hol. Shu o'rinda ayrim mulohazalarimizni bildirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz:

1) eng avvalo, matn uchun milliy adabiyotimiz durdonalari sanalgan badiiy asarlardan yaxlit, tugul ma'noga ega bo'lgan qismini tanlab olish zarur;

2) matn mavzulari o'quvchini qiziqitira olishi va yangilik ulashishiga alohida ahamiyat berish lozim;

3) matnlarning mazmuni turli fan doiralari qamrab olmoq<sup>1</sup>, integratsiyalashgan ta'limga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

4) matn doirasida berilgan lug'atlar soni va sifatiga alohida ahamiyat berish shart. O'rganilgan yangi so'zlar o'quvchining faol lug'ati tarkibidan joy olishiga erishish ona tili ta'limi oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi;

5) berilgan matn doirasida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, mustaqil izlanishga majbur qiluvchi savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish dardkor;

6) grammatik qoidalarga mos misollar ham matn strukturalari va semantikasidan kelib chiqib berilishi kerak. Bu holatda o'rganilayotgan matn va grammatik nazariya asosida o'quvchining ham matn mazmunini, ham nazariy ma'lumotni eslab qolishi osonlashadi.

Shu o'rinda amalda qo'llanilayotgan 9-sinf ona tili

darsligidan o'rin olgan 7 ta matn va lug'atlar bilan ishlash darslarining deyarli barchasida mashq va topshiriqlar yaxlit matn doirasida emas, balki alohida olingan mikro-matnlar asosida tuzilganiga guvoh bo'lamiz. Ularning ayrimlari hatto matn berilmagan. Badiiy asarlardan alohida parchalar gap holida o'quvchiga havola etiladi. O'quvchining mantiqiy fikrlashi va kognitiv bilish doirasini kengaytirishga yo'naltirilgan topshiriqlar deyarli mavjud emas. Asosiy urg'u nazariy qoidalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Ayrim savollar takror holatda qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, matn va lug'atlar ustida ishlash darsida asosan mashqlar va topshiriqlar matn yuzasidan berilishi va o'quvchini mustaqil faoliyatga undashi muhimdir. Birgina misol, 2-darsda berilgan 3 ta matnning biror yerida "tafakkur" so'zi uchramaydi. [6; 7] Lug'at sifatida esa faqat "tafakkur" so'zining ma'nolari berilgan. Bu yoshdagi o'quvchilarga *mukammal, voyaga yetmoq, fujia, umr, zo'ye ketmoq, ilmiy ish yoqlamoq* kabi matn tarkibida berilgan, o'quvchi psixologiyasiga ta'sir etuvchi so'zlarning ham izohini tushuntirish, bu so'zlarning zamiriga yashiringan ma'nolarini o'quvchining qalbiga joylash kerak. Ularda umming bebaho ne'mat ekani va undan oqilona foydalanish, har bir o'tayotgan onning qadriga yetish hissini shakllantirish, o'z hayoti va o'zgarlar taqdiri uchun mas'uliyat, daxldorlik tuyg'usini tarbiyalash berilgan matn oldiga qo'yilgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunday darslarda o'quvchilar nafaqat ta'limiy va tarbiyaviy, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z-o'zida tarbiyalashi muhim sifat sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. NCERT Book, Class 8, English. Chapter 1.
2. Shabanov D. Chet tili o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2009.
3. Doç. Dr. Mustafa Isen, Yrd. Doç. Dr. Leyla Karahan, Dr. Kümil Akarsu. Türkçe Orta okul 2. – Ankara, 1994.
4. uz.alinks.org
5. Ziyamuxamedov J. Xitoy tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDSH, 2020.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2014.

Gulshodaxon TOJIBOYEVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti

## ABDULLA QODIRIY VA ZAMONDOSHLARI IJODIDA AYOLLAR OBRAZINING MUSHTARAK JIHATLARI

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligi asoschisi, o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist. U buyuk qalamnavis bo'libgina qolmay, haqqo'y va haqiqatparvar inson edi. Uning asarlari o'zbek xalqi hayotiga bag'ishlangan. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil Toshkentda ba-

daviyat savdogar oilasida tug'ilgan. Yoshlik va o'smirlik yillaridagi muhit savdogarlar, boylar va kambag'al dehqonlar, iqtidorli hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo'lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyolilari bo'lajak yozuvchi shakllanishida